# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

## №2

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026**
fevral

Milliy nashrlar
**OAK:** https://oak.uz/pages/4802



*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 441 sahifa.*
*2026-yil, fevral*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI......26
**Madaminov Bekzod Allayarovich**

“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI......32
**Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li**

HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH......37
**Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.**

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ......42
**Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли**

ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН......48
**Бекзод Умматов**

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА......55
**Вахидов Азизжон Саиджонович**

SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI......58
**Xalikulova Shirin Utkir qizi**

“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI......62
**Xayitboyeva Laylo Oybekovna**

XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI......66
**Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich**

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH......72
**Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li**

PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH......76
**Obidova Zilola Ikromjon qizi**

HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH......81
**Nomurodova Farangiz Lazizovna**

AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI......87
**Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich**

YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI......92
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOYILLARI......96
**Mavrulov Ravshan Nematjonovich**

УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ ......101
**Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи**

DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ......107
**Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ......111
**Axmedov Sanjar Temur o'g'li**

RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI ......117
**Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li**

GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI ......123
**Abdirazakov Akmal Ibragimovichб Namozov Og'abek Maxmud o'g'li**

AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS ......128
**Utkirova Maftuna Murodjon qizi**

O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI ......134
**Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li**

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ......139
**Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li**

TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI ......144
**Qurbonov Jasurbek Pozilovich**

OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN ......150
**Akramov Akbarjon Akmal ugli**

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI ......156
**Aminov Abbos Mo'minboy o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR ......160
**Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich**

MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI ......165
**Yakubov Temur G'anibekovich**

AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI ......169
**Siroj Zarina Rustambekovna**

AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ......176
**Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ......181
**Ziyodullayev Qahramon**

ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ ......185
**Хамдамова Гавхар Абсаматовна**

O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIYAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ......191
**Mamatov Baxodir Quldoshovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

KO‘P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH ........197
Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o‘g‘li, Valixonov Dostonbek Azim o‘g‘li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o‘g‘li

MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ........205
Abdinazarov Xusan Shaymanovich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG‘URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ........209
Nomozova Qumri Isoyevna

XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI........216
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li

QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI ........221
Achilova Firuza Kurbanovna

BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI ........225
Rajabov Oybek Panjievich

MINTAQADA OLIY TA’LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH........229
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o‘g‘li

MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI........235
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH ........240
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah

MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR........245
Pardayev Jamshid Muzaffarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI........251
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH........257
Karimov Shohruh Boydulla o‘g‘li

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH........262
Astanov Zafar Murodillayevich

QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODELI ........266
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich,
Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........272
Norboyev Sarvar Azodovich

O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI........277
Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o‘g‘li

ANALYSIS OF UZBEKISTAN’S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH........283
B.Beknazarov

SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI ....288
**Abduxalilova Laylo Tohtasinovna**

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ ....294
**Мегноров Алмардон Абдирахмонович**

RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY ....302
**Nigmatova Malika**

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI....307
**Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich**

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI....311
**Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi**

АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ ....316
**Киличева Ф.Б.**

MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ....320
**Kushmanova Mahbuba**

GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ....324
**Xamidov Xayriddin Faxritdinovich**

DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)....329
**Sharapov Farrux Shomuratovich**

КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGSI ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ ....333
**Ибрахимов Фаррухжон Фарходович**

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH....336
**G'oziyeva Mokhira Rustamovna**

KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI....345
**Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'lqin Alimardanovich**

SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR ....352
**To'g'onov Ibroximxo'ja**

TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI....358
**Djalalova Sevara Toxtamuratovna**

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ....362
**Шоев Алим Халмуратович**

TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI....367
**Umirzoqova Aziza Olim qizi**

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH....372
**Ismatov Raxmatilla Oltinovich**

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA....376
**Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li**

BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR ....379
Sadikov Q.M.

СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ....383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI ....390
S.M. Raximova

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI....395
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna

IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI ....399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI ....404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH....408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI ....412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI....418
Sultanov Anvar Abdullaevich

INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH ....423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi

YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI ....429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li

NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI....434
Otayor Usmonaliyev

# NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

**Otayor Usmonaliyev**
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
otayor4000991@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0000-4601-924X

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish jarayonlari, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning samaradorligi, hududda turizmni rivojlantirish uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, turizm strategiyasini shakllantirish va uni samarali amalga oshirishda hududlarning turistik salohiyatini baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida viloyatda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda uning hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, turizm, imkoniyatlar, omillar, iqtisodiy resurslar, turistik firmalar, daromad, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article comprehensively examines the processes of tourism development in the Namangan region and highlights the effectiveness of ongoing initiatives aimed at strengthening the tourism sector. The study analyzes the favorable conditions created to support tourism growth and evaluates the tourism potential of the region in the context of developing and implementing regional tourism strategies. Furthermore, the paper identifies priority directions for future tourism development and emphasizes its role in promoting regional economic growth and competitiveness.

Keywords: state, tourism, opportunities, factors, economic resources, tourism companies, income, regional development.

Аннотация. В статье всесторонне рассмотрены процессы развития туристической отрасли в Наманганской области, а также результаты проводимой в данном направлении целенаправленной и эффективной работы. Проанализированы создаваемые в регионе благоприятные условия для устойчивого развития туризма, а также вопросы оценки туристического потенциала территорий при формировании и реализации региональной туристической стратегии. В работе также определены приоритетные направления дальнейшего развития туристической отрасли и её значение в обеспечении социально-экономического роста региона.

Ключевые слова: государство, туризм, возможности, факторы, экономические ресурсы, туристические компании, доход, региональное развитие.

## KIRISH

Respublikamizning geografik o‘rni, qulay tabiiy-iqlim sharoitiga egaligi, betakror va noyob tarixiy yodgorliklari, boy va xilma-xil mevalari, milliy taomlari, shuningdek, o‘ziga xos an’ana va urf-odatlari turizm sohasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini namoyon etadi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishda mavjud siyosiy barqarorlik va izchil islohotlar ham muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekistonda, xususan viloyatlar va chekka hududlarda turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlar turizm sohasini barqaror rivojlantirishning mustahkam institutsional va huquqiy asosini yaratmoqda.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xalqaro turizm aloqalarini rivojlantirish hamda sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish borasida muhim kelishuvlar va xalqaro shartnomalar imzolanmoqda. Bu esa mamlakatimizning turizm salohiyatini yanada oshirish, hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni strategik rivojlantirish yoʻnalishlariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlarda ushbu sohaning barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlagan holda rivojlantirishdagi oʻrni alohida taʼkidlanadi. Xususan, turizm strategiyasining samarali amalga oshirilishi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy merosni asrash va iqtisodiy manfaatlar oʻrtasida oʻzaro uygʻunlikni taʼminlash zarurligi asoslab berilgan (Kaikara, 2020).

Rodrigues va boshqalar (2025) tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan konseptual modelda turizmni barqaror rivojlantirishda infratuzilma, samarali boshqaruv, innovatsiyalar va institutsional muhit muhim omillar sifatida eʼtirof etilgan. Ushbu yondashuv turizmni rivojlantirishda strategik qarorlar qabul qilish jarayonida kompleks va tizimli yondashuvni qoʻllash zarurligini koʻrsatadi.

Turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa raqamli texnologiyalar va tajribaviy marketing vositalaridan foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ham keng oʻrganilgan. Jumladan, Damiasih (2025) innovatsion marketing strategiyalarining barqaror turizmni rivojlantirishdagi rolini tadqiq etib, ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar integratsiyasi, strategik boshqaruv va manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidlaydi.

Mahalliy miqyosdagi tadqiqotlarda ham turizm marketingi strategiyalarining ahamiyati alohida eʼtirof etilgan. Xususan, Kusekeev (2025) Qoraqalpogʻiston Respublikasi misolida turizmni rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish, hududiy brend yaratish hamda ichki turizmni rivojlantirish strategiyalarini taklif etgan.

Turizmning ichki segmenti iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va madaniy almashinuvni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Oʻsarov (2025) ichki turizmning mavjud holatini SWOT tahlili asosida baholab, ushbu yoʻnalishni rivojlantirishning ustuvor strategik yoʻnalishlarini asoslab bergan. Shu bilan birga, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, tarixiy va madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda ularni saqlab qolish zarurligi Meliboyeva (2025) tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Baxshilloev (2025) innovatsion texnologiyalarni turizm faoliyatiga joriy etish orqali barqaror rivojlanishni taʼminlash va integratsiya jarayonlarini faollashtirish muhimligini asoslab bergan. Shuningdek, Almeida (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda «digital twins» texnologiyalaridan foydalanish turizm obyektlarini boshqarish samaradorligini oshirish va turistlar uchun xizmat sifatini yaxshilashda istiqbolli yoʻnalish sifatida baholangan.

Hududiy turizmni strategik rivojlantirish masalalari ham alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilgan. Jumladan, Daminova (2025) Qashqadaryo viloyati misolida turizmni rivojlantirishda infratuzilmani modernizatsiya qilish, turizm klasterlarini shakllantirish hamda investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega ekanini koʻrsatgan.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish turizm xizmatlari sifatini oshirish va turistik oqimni koʻpaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yunusova (2025) turizm infratuzilmasini rivojlantirishning kompleks mexanizmlarini tadqiq etib, ayniqsa raqamli texnologiyalarni joriy etish ushbu jarayon samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini taʼkidlagan.

Barqaror turizmni rivojlantirish masalalari Ismoilov (2025) tomonidan ham keng oʻrganilgan boʻlib, unda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni oʻzaro uygʻunlashtirish asosida turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, turizmni barqaror va samarali rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, marketing strategiyalarini takomillashtirish hamda hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Namangan viloyati misolida turizmni strategik rivojlantirish masalalari yetarli darajada kompleks oʻrganilmagan boʻlib, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Namangan viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirish yoʻnalishlarini aniqlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini baholash hamda hududiy turizm siyosatini takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qoʻllanildi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish maqsadida turizm iqtisodiyoti, hududiy rivojlanish, strategik menejment hamda turistik klasterlar nazariyasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Ushbu jarayonda kontent-tahlil usulidan foydalanilib, ilmiy maqolalar, davlat dasturlari, konseptual hujjatlar hamda turizmni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda oʻrganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega boʻlib, respublika hududida jami 7,4 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. Ushbu obyektlarning 209 tasi toʻrtta muzey-shahar — Xiva shahridagi Ichan-qalʼa, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi hamda Samarqand shahri hududida joylashgan boʻlib, YuNESKOning Butunjahon merosi roʻyxatiga kiritilgan. Mazkur obyektlar Oʻzbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Soʻnggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish yoʻnalishida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent shahrida “Hyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Hotel Tashkent Palace” kabi zamonaviy mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Andijon, Urganch va Toshkent shaharlarida zamonaviy madaniy-koʻngilochar bogʻlar tashkil etildi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida “Angren–Pop” temir yoʻli qurilib foydalanishga topshirildi, shuningdek, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar qatnovini taʼminlovchi elektrlashtirilgan temir yoʻl tarmoqlari ishga tushirildi. Mazkur chora-tadbirlar hududlar turistik jozibadorligini oshirish, transport qulayligini yaxshilash hamda sayyohlar oqimini koʻpaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Oʻzbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy va ichki sayyohlar statistikasi 2017–2023-yillar oraligʻida sezilarli oʻzgarishlarni namoyon etdi. Xususan, xorijiy turistlar soni 2017-yilda 5,35 million kishini tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilda ushbu koʻrsatkich 7 million kishiga yaqinlashdi. Bu esa mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, viza rejimining soddalashtirilishi hamda turizm infratuzilmasining yaxshilanishi natijasida turistik oqimning barqaror oʻsish tendensiyasini koʻrsatganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli joriy etilgan vaqtinchalik cheklovlar natijasida xorijiy turistlar soni keskin kamayib, 1,7 million kishini tashkil etdi. Mazkur holat global turizm bozoridagi umumiy pasayish tendensiyasi bilan izohlanadi. Biroq, keyingi yillarda amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar, sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni taʼminlash hamda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish natijasida turizm sohasida tiklanish jarayonlari bosqichma-bosqich faollashib, turistlar oqimining qayta oʻsishiga zamin yaratildi (1-jadval).

1-jadval. Oʻzbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy va sayohatlari amalga oshirilgan mahalliy sayyohlar toʻgʻrisida maʼlumot[1]

| Koʻrsatkichlar nomi | Oʻlchov birligi | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 yanvar-mart |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xorijiy turistlar | Ming nafar | | 5 346,0 | 6 041,0 | 7 010,0 | 1 700,0 | 2 720,0 | 1 487,5 |
| | | 2 690,1 | 5 346,2 | 6 748,5 | 1 504,1 | 1 881,3 | 5 232,780 | 2 589,2 |
| | Foiz | | 100,0 | 111,7 | 21,5 | 110,7 | 192,4 | 174,1 |
| Shundan yoshlar kesimida : | Ming nafar | 2 690,1 | 5 346,2 | 6 748,5 | 1 504,1 | 1 881,3 | 5 232,8 | 2 589,3 |
| 0 dan 18 yoshgacha | | 218,7 | 434,6 | 611,8 | 140,7 | 270,9 | 723,3 | 328,6 |
| 19 dan 30 yoshgacha | | 548,6 | 1 090,3 | 1 315,9 | 285,8 | 312,6 | 846,5 | 401,5 |
| 31 dan 55 yoshgacha | | 1 401,7 | 2 785,7 | 3 458,6 | 787,5 | 935,4 | 2 593,4 | 1 317,7 |
| 55 ёшдан ошган | | 521,1 | 1 035,6 | 1 362,2 | 290,2 | 362,5 | 1 069,6 | 541,6 |
| shundan safar maqsadlari boʻyicha: | | 2 690,1 | 5 346,2 | 6 748,5 | 1 504,1 | 1 881,3 | 5 232,8 | 1 487,7 |
| xizmat | Ming nafar | 28,4 | 56,5 | 53,1 | 17,4 | 60,7 | 83,8 | 27,0 |
| oʻqish | | 7,4 | 14,6 | 21,4 | 4,7 | 6,4 | 8,8 | 3,3 |
| dam olish va boʻsh vaqt | | 230,5 | 458,1 | 1 043,9 | 129,3 | 155,1 | 392,2 | 108,1 |
| qarindoshlari yoʻqlash | | 2 371,7 | 4 713,5 | 5 520,7 | 1 321,4 | 1 613,1 | 4 657,6 | 1 322,2 |
| davolanish | | 26,4 | 52,5 | 55,5 | 15,0 | 32,4 | 70,0 | 17,5 |
| tijorat | | 25,6 | 50,9 | 53,9 | 16,3 | 13,6 | 20,5 | 9,7 |

1 Muallif ishlanmasi

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| tashrif geografiyasi bo‘yicha | Ming nafar | | 5 346,2 | 6 748,5 | 1 504,1 | 1 881,3 | 5 232,8 | 1 487,7 |
| qo‘shni davlatlardan | | | 4 658,4 | 5 827,1 | 1 350,4 | 1 540,9 | 4 364,8 | 1 273,0 |
| qolgan MDH davlatlaridan | | | 406,2 | 495,6 | 90,0 | 208,2 | 606,4 | 147,6 |
| boshqa davlatlardan | | | 281,6 | 425,8 | 63,8 | 132,3 | 261,6 | 67,1 |

2021 va 2022-yillarda turizm sohasida tiklanish jarayoni izchil kuzatildi. Xususan, xorijiy sayyohlar soni 2021-yilda 2,72 million kishini, 2022-yilda esa 5,23 million kishini tashkil etdi. 2023-yilning yanvar–mart oylari yakuni bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 2,59 million kishiga yetgani qayd etildi. Mazkur dinamik ko‘rsatkichlar pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasida barqaror tiklanish va rivojlanish tendensiyasi shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Yosh tarkibi bo‘yicha tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 31–55 yosh toifasiga mansub turistlar eng yuqori ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2017–2023-yillar davomida ularning soni 1,4 milliondan 2,6 million kishigacha bo‘lgan. Mazkur holat ushbu yosh toifasidagi aholining iqtisodiy faolligi yuqoriligi, moliyaviy imkoniyatlari kengligi hamda turizm xizmatlariga bo‘lgan talabining barqarorligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, 0–18 yosh hamda 19–30 yosh guruhlariga mansub turistlar ulushi nisbatan pastroq darajada qayd etilgan.

Sayohat maqsadlari kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turistlarning asosiy qismi O‘zbekistonga qarindoshlarini ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurgan. Jumladan, 2019-yilda mamlakatga tashrif buyurgan 5,52 million turistning 1,04 million nafari dam olish va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, 53 ming nafari xizmat safari, 21 ming nafari esa ta’lim olish maqsadida kelgan. Shu bilan birga, davolanish hamda tijorat maqsadidagi tashriflar ulushi nisbatan past darajada qayd etilgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishlar turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish uchun muhim istiqbolli segmentlardan biri hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Turistik firma va tashkilotlar faoliyati ko‘rsatkichlarini hududlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil uchun)[2]

| Turistik firma va tashkilotlar soni | | | Xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni | | Sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari soni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Jami** | **jamiga nisbatan % dagi ulushi** | **Jami** | **jamiga nisbatan % dagi ulushi** | **Jami** | **jamiga nisbatan % dagi ulushi** |
| O‘zbekiston Resp. | 743 | 100 | 1 972,9 | 100 | 601,5 | 100 |
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 9 | 1,2 | 18,3 | 0,9 | 17,9 | 3,0 |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 16 | 2,1 | 0,7 | 0,1 | 1,3 | 0,2 |
| Buxoro | 44 | 5,9 | 66,1 | 3,4 | 48,7 | 8,1 |
| Jizzax | 16 | 2,1 | 30,1 | 1,5 | 10,5 | 1,7 |
| Qashqadaryo | 9 | 1,2 | 8,6 | 0,4 | 6,4 | 1,1 |
| Navoiy | 28 | 3,8 | 17,0 | 0,9 | 0,1 | 0,0 |
| Namangan | 8 | 1,1 | 2,6 | 0,1 | 1,9 | 0,3 |
| Samarqand | 144 | 19,4 | 61,7 | 3,1 | 71,7 | 11,9 |
| Surxondaryo | 14 | 1,9 | 1,8 | 0,1 | 1,8 | 0,3 |
| Sirdaryo | 2 | 0,3 | 2,0 | 0,1 | 2,0 | 0,3 |
| Toshkent | 16 | 2,1 | 2,1 | 0,1 | 5,1 | 0,9 |
| Farg‘ona | 19 | 2,6 | 11,9 | 0,6 | 12,0 | 2,0 |
| Xorazm | 28 | 3,8 | 497,5 | 25,2 | 43,2 | 7,2 |
| Toshkent sh. | 390 | 52,5 | 1 252,5 | 63,5 | 378,9 | 63,0 |

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida jami 743 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritib, ular tomonidan 1 972,9 ming nafar mijozga xizmat ko‘rsatildi hamda 601,5 ming dona sayyohlik yo‘llanmalari realizatsiya qilindi. 2023-yilga nisbatan ushbu asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha barqaror o‘sish kuzatildi. Jumladan, turistik firma va

2 Muallif ishlanmasi

tashkilotlar soni 150 taga yoki 25,3 foizga, ular tomonidan xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni 815,8 ming nafarga yoki 70,5 foizga oshdi. Shuningdek, sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari soni 339,1 ming taga ortib, 2,3 barobar o‘sishga erishildi. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda turizm xizmatlari bozorining kengayib borayotganini hamda sohaga bo‘lgan talab izchil ortayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismini qo‘shni davlatlar fuqarolari tashkil etadi. Xususan, 2017-yilda qo‘shni davlatlardan 4,66 million nafar turist, boshqa MDH davlatlaridan 406 ming nafar hamda uzoq xorijiy davlatlardan 282 ming nafar turist tashrif buyurgan. Ushbu tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qolgan bo‘lib, 2023-yilda qo‘shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlar soni 1,27 million nafarga, boshqa MDH davlatlaridan 148 ming nafarga, uzoq xorijiy davlatlardan esa 67 ming nafarga teng bo‘lgan. Mazkur holat O‘zbekiston turizmining mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston turizm sohasida barqaror rivojlanish bosqichiga kirib bormoqda. Global pandemiya va tashqi iqtisodiy omillar ayrim davrlarda turizm oqimlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, sohada tiklanish va o‘sish jarayonlari izchil davom etmoqda. Turistlar oqimining yosh, maqsad va geografik tarkibi bo‘yicha tahlillar turizm siyosatini takomillashtirish hamda yangi strategik yo‘nalishlarni belgilashda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

2022-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarning safar maqsadlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning asosiy qismi, ya’ni 89,0 foizi qarindoshlarini ziyorat qilish maqsadida kelgan. Shu bilan birga, dam olish va rekreatsiya maqsadida tashrif buyurganlar ulushi 7,5 foizni, xizmat safari bilan kelganlar 1,6 foizni, davolanish maqsadida kelganlar 1,3 foizni, tijorat maqsadida kelganlar 0,4 foizni hamda ta’lim olish maqsadida kelganlar 0,2 foizni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda rekreatsion va tijorat turizmini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi [2].

Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati doirasida Namangan viloyatida ham tizimli va samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2024-yilning yanvar–sentabr oylari davomida viloyatga 569,9 ming nafar xorijiy turist (yillik rejaning 114 foizi) hamda 3 569,9 ming nafar mahalliy turist tashrif buyurdi. Natijada turizm xizmatlari eksporti hajmi 184,7 million AQSh dollarini tashkil etdi va bu yillik rejaning 92,4 foiziga teng bo‘ldi.

Shuningdek, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida sentabr oyida 147,8 ming nafar, yil boshidan buyon jami 2 016,3 ming nafar aholi ichki turizmga jalb etildi va belgilangan yillik rejaning 92 foiziga erishildi. Bundan tashqari, viloyatda 19 ta yangi turoperator va турагент faoliyati yo‘lga qo‘yilib, belgilangan yillik reja 633 foizga bajarildi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham sezilarli natijalarga erishildi. Jumladan, 121 o‘rinli 5 ta xostel (125 foiz), 9 o‘rinli 1 ta yotoqxona, 10 o‘rinli 1 ta oilaviy mehmon uyi hamda 161 o‘rinli 2 ta zamonaviy mehmonxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada hududda turistlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Turizm sohasida bandlikni ta’minlash yo‘nalishida ham muhim natijalarga erishildi. Xususan, 2024-yilning dastlabki 9 oyi davomida 2 300 ta yangi ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilgan bo‘lsa, amalda 2 380 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etilib, belgilangan reja 103,4 foizga bajarildi.

Shuningdek, turizm infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 18 ta Wi-Fi nuqtalari hamda 19 ta turistik yo‘l belgilari o‘rnatildi. Bundan tashqari, turizm xizmatlari obyektlarini rivojlantirish natijasida 45 ta sanitariya-gigiyena shoxobchalari qurilib yoki rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

Hududda turistik transport xizmatlarini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari tomonidan jami 54 ta yangi transport vositalari, jumladan, 3 ta turist avtobusi, 2 ta yo‘ltanlamas avtomobil, 4 ta kvadrosikl, 3 ta mikroavtobus, 20 ta elektromobil, 20 ta hududlararo avtobus hamda 2 ta boshqa turdagi transport vositalari ishga tushirildi. Natijada turistik transport vositalarining umumiy soni 186 taga yetkazildi [3].

Shuningdek, viloyatning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarida yangi loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, Yangiqo‘rg‘on tumani Nanay qishlog‘i va Pop tumani Chodak qishlog‘iga 2024-yilda “Turizm qishlog‘i” maqomi berildi. Bu esa hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va yangi investitsiyalarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Kadrlar tayyorlash yo‘nalishida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Namangan davlat universiteti hamda Namangan muhandislik-texnologiya institutida “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Ta’lim jarayoni Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bilan hamkorlikda uch yillik dastur asosida hamda dual ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilmoqda.

Shuningdek, viloyatning turizm salohiyatini keng targ‘ib etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar, turoperatorlar va soha mutaxassislari ishtirokida Chodak qishlog‘ida maxsus infotur tashkil etildi. Bundan tashqari, viloyatning 5 ta tumanida turizmni rivojlantirish bo‘yicha master-rejalarni ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda turizm sohasini izchil rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishini ta’minlash, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda aholi bandligini kengaytirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, kelgusida mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, respublikada turistik faoliyatni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, sohaga oid xalqaro me’yorlar va standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu, oʻz navbatida, turizm faoliyatini tashkil etishda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qoʻllash hamda investorlar uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mamlakatimizning barcha hududlarida turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, jumladan, zamonaviy mehmonxonalar, xostellar, dam olish maskanlari, transport va servis obyektlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hududlarning turizm salohiyatidan samarali foydalanish hamda turistlar oqimini koʻpaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, transport-logistika tizimini rivojlantirish, ichki va xalqaro transport yoʻnalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifati va qulayligini oshirish zarur. Bu turistlar harakatlanishini yengillashtirish bilan bir qatorda, turistik hududlarning oʻzaro integratsiyasini mustahkamlaydi.

Toʻrtinchidan, turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali turizmning mavsumiylik omiliga bogʻliqligini kamaytirish lozim. Xususan, ekologik turizm, ziyorat turizmi, agro-turizm, tibbiy turizm va gastronomik turizm kabi istiqbolli yoʻnalishlarni rivojlantirish orqali turizm xizmatlari spektrini kengaytirish mumkin.

Beshinchidan, ichki turizmni rivojlantirishni ragʻbatlantirish, turizm subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, aholining turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim strategik ahamiyatga ega. Bu ichki turizm bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi hamda hududlar iqtisodiyotini faollashtiradi.

Oltinchidan, Oʻzbekiston Respublikasining turistik mahsulotlarini xalqaro va milliy turizm bozorlarida faol targʻib qilish, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va zamonaviy turizm imkoniyatlarini keng namoyish etish zarur. Bu mamlakatning xalqaro turizm maydonidagi raqobatbardoshligini oshirish hamda uning jozibador turistik manzil sifatidagi ijobiy imidjini yanada mustahkamlaydi.

Yettinchidan, turizm sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat koʻrsatish xodimlarini qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy bilim va koʻnikmalarga ega kadrlar tayyorlash turizm xizmatlari sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ustuvor yoʻnalishlarni izchil amalga oshirish respublikamizda turizm sohasining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlaydi, hududlarning turizm salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarishga xizmat qiladi hamda aholi bandligi va daromadlari oshishiga ijobiy ta’sir koʻrsatadi. Natijada turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida milliy iqtisodiy oʻsishning muhim drayveriga aylanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. https://orients.uz/media/conferencearticles/21
2. Damiasih, D. (2025). Innovative marketing strategies for sustainable tourism development: A literature review. Golden Ratio of Marketing and Applied Psychology of Business, 5(1), 246–257.
3. Ismoilov, O. A. (2025). Sustainable development strategies in tourism: Ecological, economic and social approaches. International Journal of Management and Economics Fundamental.
4. Kaikara, O. (2020). Tourism development strategy. International Journal Paper Public Review.
5. Kusekeev, B. K. (2025). The role of marketing strategies in the development of the tourist services market. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance.
6. Meliboyeva, M. O. (2025). Oʻzbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning oʻrni.
7. Oʻsarov, O. (2025). Oʻzbekiston mahalliy turizmini rivojlantirish. Journal of Universal Science Research.
8. Ugʻiloy, Y. (2025). Oʻzbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari. https://sci-p.uz/index.php/editions/article/view/2252

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**